

IJTIMOY FALSAFA TARAQQIYOTI.

Qurbonmurodov Bekzod Uktamovich

Qarshi davlat universiteti uslubchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184179>

Tadqiqot maqsadi: Falsafa odam va olam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari, insonning olamdagi o'рни to'g'risidagi fandir. Falsafa «Olam nima?» «Olam qanday?» «Uni bilish mumkinmi?» kabi savollarga javob izlash jarayonida eng qadimiy davrlardan boshlab shakllandi.

Annotatsiya: Ijtimoiy falsafa — falsafa fanining jamiyat va uning taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi. Ijtimoiy falsafa insonlarning amaliy faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ham tahlil qiladi. Insonlar turli faoliyatlari jarayonida o'z hayotlari uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ijtimoiy muhitni yaratadilar va bu jarayonda o'zaro turli munosabatlar o'rnatadilar. Anglaganingizdek, ushbu maqolada ijtimoiy falsafa xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy falsafa, jamiyat, ong-tafakkur, taraqqiyot.

Tadqiqot ma'zmuni: Ma'lumki, jamiyat o'zaro ijtimoiy munosabatlarda bo'lgan insonlardan tashkil topadi. Ijtimoiy falsafa - falsafa fanining jamiyat va uning taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi. Ijtimoiy falsafa insonlarning amaliy faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ham taxlil qiladi. Insonlar turli faoliyatlari jarayonida o'z hayotlari uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ma'naviy va ijtimoiy muhitni yaratadilar va bu jarayonda o'zaro turli munosabatlar o'rnatadilar. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi sifatida falsafa fanidan kelib chiqqan. Agar falsafa olam va odam munosabatlari tahlili bilan shug'ullansa, ijtimoiy falsafa jamiyat va inson munosabatlarini tadqiq etadi. Agar falsafa olam, uning mohiyati, qonuniyatlari to'g'risidagi fan bo'lsa, ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi bo'lgan jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa falsafa fani bag'ridan o'sib chiqqan. Uni falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tahlil qilmoq lozim. Ijtimoiy falsafa ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, antropologiya ta'limotlari bilan bevosita bog'liq, u shu ta'limotlarning jamiyatga izchil tatbiq etilishining natijasi va mahsuli hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa borliq falsafasi, antologiya ta'limoti bilan bevosita bog'liq ravishda shakllangan. Falsafiy bilimlarning rivojlanib, chuqurlashib borishi oqibatida psixologiya, formal mantiq, etika, estetika kabi fanlar ajralib chiqqan. Ayni vaqtda falsafaning jamiyat, insonga bevosita daxldor muammolari va bu muammolar doirasida erishilgan ilmiy bilimlar ijtimoiy falsafaning shakllanishiga sababchi bo'lgan. Ijtimoiy falsafa o'rganish obyekti – jamiyat. Ijtimoiy falsafa kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi haqida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat

haqidagi eng umumiy bilimlar, tushunchalar majmui bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish yo'lida kelib chiqadigan muammolarni oqilona hal etish, jamiyat istiqbolini oldindan ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy falsafa jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida qarar ekan, jamiyatning ayrim sohalarini tatqiq etuvchi fan vakillari e'tiborini ijtimoiy organizmning normal ishlashi uchun uning har bir a'zosi qanday rol o'ynashiga e'tibor qaratadi. Ijtimoiy falsafa jamiyatni kishilarning o'ziga xos uyushuvidan iborat ijtimoiy organizm, deb biladi va shu asosida jamiyatning eng kichik subatami – inson ekanligiga diqqatni qaratadi. Kishilik jamiyati va insonning kelib chiqishi, insonning jamiyatga munosabati, uning jamiyatdagi o'rni ijtimoiy falsafa tatqiq etadigan eng muhim muammolaridan biridir. Ijtimoiy falsafa jamiyat va insonni uzluksiz o'zgarib, rivojlanib boruvchi tizim sifatida o'rganadi va ijtimoiy taraqqiyotning mazmun-mohiyati, shakl va ko'rinishlari, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari to'g'risida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa doirasidagi eng muhim muammo – jamiyatni bilish muammosidir. Ijtimoiy falsafa jamiyatda kechadigan ijtimoiy voqea va jarayonlarni ilmiy bilishning metodologik asoslarni ishlab chiqadi.

Falsafiy dunyoqarash. Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi. Falsafiy dunyoqarash dunyoni, borliqni aqliy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir. U insonning aqliy-intellektual faoliyatiga ko'proq e'tibor beradi. Falsafiy dunyoqarash shakllanishi va rivojlanishiga afsonaviy, diniy dunyoqarashning ta'siri bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Falsafiy dunyoqarash ana shu ikki irmoq negizida vujudga keldi. Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalaridan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv «monadaga doir yondashuv», degan nom olgan. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa, ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning

individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi. Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardusht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi. Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham, Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumiy, Leonardo da Vinchi ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa, eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T., "Sharq", 2004 yil.
2. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. - T., 2001 yil.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupovning umumiy tahrir ostida. - T., "Sharq", 1999 yil.
4. Falsafa asoslari. Axmedova M. va V.S. Xon tomonidan tahrirlangan). - T., tahrir. "Mehnat", 2004 yil.
5. Falsafa (Matbua Axmedovaning umumiy tahriri ostida) - T., "O'zbekiston filasouflari Milliy jamiyati" nashriyoti, 2006 yil